



XAVFLARNI BOSHQARISH TIZIMI (SUR) ORQALI EKSPORT JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Sobirova Muxlisa

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi*

ORCID: 0009-0003-6846-774X

sobirovamuxlisa80@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda xavflarni boshqarish tizimining (SUR) ahamiyati IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot xususan bojxona nazoratini optimallashtirish, eksport operatsiyalarini tezlashtirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rnini masalalarini qamrab oladi. Empirik ma'lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida SUR tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport, bojxona nazorati, xavf, risk-menejment, tashqi savdo, SUR, iqtisodiy xavfsizlik, selektiv nazorat, fitosanitar talablar.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКСПОРТНЫХ ПРОЦЕССОВ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ (СУР)

Собирова Мухлиса

Научно-исследовательский центр

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье на основе методологии IMRAD анализируется значение системы управления рисками (СУР) в регулировании внешнеэкономической деятельности. В частности, научно освещается роль тизима в оптимизации таможенного контроля, ускорении экспортных операций и обеспечении экономической безопасности. На основе анализа эмпирических данных и нормативно-правовой базы разработаны практические предложения по совершенствованию системы СУР.

Ключевые слова: экспорт, таможенный контроль, риск, управление рисками, внешняя торговля, СУР, экономическая безопасность, селективный контроль, фитосанитарные требования.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF EXPORT PROCESSES THROUGH A RISK MANAGEMENT SYSTEM (RMS)

Sobirova Mukhlisa

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article, structured according to IMRAD methodology, analyzes the importance of the Risk Management System (RMS) in regulating foreign economic activity. In particular, its role in optimizing customs control, accelerating export operations, and ensuring economic security is scientifically examined. Based on empirical data analysis and regulatory framework review, practical proposals are developed for improving the RMS.*

Keywords: *export, customs control, risk, risk management, foreign trade, RMS, economic security, selective control, phytosanitary requirements.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida mamlakatlarning tashqi savdo faoliyatini samarali tashkil etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global iqtisodiy integratsiya jarayonida har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va o'sish sur'atlari eksport salohiyatining darajasiga bevosita bog'liq ekanligi iqtisodiy nazariy va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan (Krugman, 2018). Eksport salohiyati hududning ichki resurslari, ishlab chiqarish quvvati, innovatsion salohiyat, logistika infratuzilmasi va eksport yo'nalishlarining diversifikatsiyasi bilan belgilanadi.

Eksportning dinamik o'sishi milliy iqtisodiyot uchun mutlaq yalpi ichki mahsulot (YAIM), ish bilan bandlik, valyuta daromadlari va texnologik modernizatsiyani qo'llab-quvvatlash uchun muhim mexanizm hisoblanadi (Porter, 1990). O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida eksport hajmini keskin oshirish vazifasi markaziy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan – 2030 yilga kelib umumiy eksport ko'rsatkichini 67 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilgan (Farmon, 2022). 2026-yilda esa ushbu ko'rsatkichni 40 mlrd dollarga yetkazish maqsad qilib belgilangan.

O'zbekiston moliya bozoridagi yuqori foiz stavkalari va global iqtisodiy noaniqliklar sharoitida tadbirkorlar o'z mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqarish uchun qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi PQ-126-son qaroriga (2024) asosan Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan. Kompaniyaning asosiy maqsadi – tarmoqlar va hududlarning sanoat va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirish, sohada davlat aralashuvini kamaytirish orqali tadbirkorlar birlashmalarining rolini oshirish, eksport va eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini samarali va shaffof tashkil etishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, xavflarni boshqarish tizimi (SUR) (2025) bojxona organlari faoliyatida muhim o'rin tutib, nazorat jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim orqali barcha operatsiyalarni to'liq tekshirishdan voz kechilib, xavf darajasiga qarab selektiv nazorat amalga oshiriladi. Mazkur maqolaning maqsadi — SUR tizimining eksport jarayonlaridagi samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Xavflarni boshqarish tizimiga oid ilmiy adabiyotlar ikki yo'nalishda shakllangan: biri umumiy risk-menejment nazariyasi, ikkinchisi bojxona va tashqi savdo sohasidagi maxsus

tadqiqotlar. Iqtisodiy adabiyotlarda eksport o'sishining milliy daromad, bandlik va texnologik rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi ko'p bora isbotlangan (Krugman, 2018). Xususan, milliy raqobatbardoshlik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, eksport faolligini oshirishning asosiy sharti — ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarida sifat va nazorat standartlariga amal qilishdir (Porter, 1990). Ushbu umumiy nazariy xulosalar SUR tizimining amaliy mohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri daxldor: selektiv nazorat mexanizmi aynan sifat xavflarini oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan.

Xalqaro standartlar sohasida ISO (2018) 31000:2018 xavflarni boshqarishning universal metodologik asosi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu standart xavfni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonlarini siklik tarzda tashkil etishni tavsiya qiladi, ya'ni har bir bosqich oldingi bosqich natijalariga tayanadi va tizim doimiy yangilanib boradi. Bojxona sohasida ushbu tamoyillar Kioto Konvensiyasining (2008) maxsus ilovalarida aniqlashtirilgan bo'lib, unda eksport operatsiyalari uchun ruxsat berilgan tovar oqimlarini xavf darajasiga qarab ajratib tekshirish zarurligi belgilab qo'yilgan. Mazkur ikki xalqaro hujjat birgalikda O'zbekiston SUR tizimining normativ asosini tashkil qiladi.

Jahon Bojxona Tashkilotining SAFE (2023) standartlari to'plami barcha a'zo davlatlar uchun yagona tamoyillar majmuasini belgilaydi: ma'lumotlar oldindan taqdim etilishi, xavfga asoslangan tekshiruv usullari qo'llanilishi va davlatlararo axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi lozim. JBT tavsiyalariga ko'ra, ushbu yondashuvni to'liq amalga oshirgan davlatlarda bojxona rasmiylashtirish vaqti sezilarli qisqargan, biroq nazorat samaradorligi pasaymaganligi qayd etilgan. Rivojlangan Yevropa davlatlari – xususan Niderlandiya va Germaniya – ushbu tamoyillarni o'z tizimlariga chuqur singdirgani va buning natijasida tashqi savdo operatsiyalari tezligi va ishonchliligi sezilarli darajada yaxshilangani mazkur tadqiqot uchun muhim qiyosiy ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy adabiyotlarda Haydarov va Sobirov (2024) O'zbekiston bojxona organlari amaliyotida risk-menejment vositalarining qo'llanilishini tahlil qilib, hozirgi kunda tizimda bir qator tarkibiy zaifliklar mavjudligini aniqlagan: risk ko'rsatkichlari yetarlicha to'liq emas, turli davlat idoralari o'rtasida ma'lumot almashinuvi sustligi kuzatiladi va nazorat jarayonlarida subyektiv omil to'liq bartaraf etilmagan. Mualliflar bu kamchiliklarni bartaraf etishning asosiy yo'li sifatida axborot tizimlarini integratsiyalash va xavf profillarini avtomatik yangilab turadigan raqamli mexanizmlarni joriy etishni tavsiya qilgan. Ushbu xulosalar mazkur tadqiqotning dolzarbligi va maqolada ilgari surilgan takliflarning ilmiy asoslanganligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasining uslubiy qo'llanmasi (2025) SUR tizimining amaliy qo'llanilish tartibini batafsil bayon qiladi. Hujjatda eksportchilarni uch toifaga — past, o'rta va yuqori xavf guruhlariga — ajratish mezonlari aniq belgilab berilgan. Bu toifalash asosida nazorat resurslari maqsadli taqsimlanadi: past xavfli eksportchilar uchun jarayon tezlashtiriladi, yuqori xavflilarga esa qo'shimcha laboratoriya tekshiruvi va doimiy kuzatuv qo'llaniladi. Rahmonov va Toshmatov (2023) taklif qilgan ilmiy tadqiqot metodologiyasi — tahliliy-sintetik, statistik va qiyosiy usullarning uyg'unligi — ushbu qo'llanma ma'lumotlarini empirik jihatdan tekshirish uchun ham to'liq mos keladi.

Fitosanitar nazorat va eksport sifati masalasida adabiyotlar O'zbekiston uchun alohida ahamiyatli bo'lgan bir jihatni qayta-qayta ta'kidlaydi: importchi davlatning qo'ygan texnik talablari eksportchining bozorga kirish imkoniyatini to'liq belgilab beradi. O'zbekistonning Riga shahridagi savdo uyi ma'lumotlari (2026) va O'zbekiston Respublikasidan Yevropa bozorlariga yo'naltirilgan eksport oqimlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Yevropa Ittifoqining pestitsid qoldiqlari bo'yicha qat'iy talablari O'zbekiston meva-sabzavot eksportining asosiy xavf omillaridan biriga aylangan. 2026-yil yanvar oyida Latviyada qayd etilgan ukrop partiyasini yo'q qilish hodisasi (2026) ushbu xavfning real iqtisodiy oqibatlariga olib kelishini yorqin ifodalaydi.

Adabiyotlar sharhining umumiy xulosasi quyidagicha: xavflarni boshqarish tizimiga oid mavjud adabiyotlarda nazariy asoslar va xalqaro tajriba yetarlicha yoritilgan, biroq O'zbekiston sharoitida — xususan qishloq xo'jaligi eksporti kontekstida — SUR tizimining empirik ta'sirini o'lchash bo'yicha tadqiqotlar hali cheklangan. Shuningdek, bojxona xavf boshqaruvi bilan fitosanitar nazoratni bir tizimga birlashtirish masalasi mahalliy ilmiy muhitda etarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirish yo'lida empirik ma'lumotlar va normativ-huquqiy tahlilga asoslangan yondashuvni qo'llaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanilgan: (1) tahliliy-sintetik tahlil — SUR tizimining nazariy asoslarini o'rganishda; (2) statistik tahlil — eksport ko'rsatkichlari va bojxona nazorati ma'lumotlarini qayta ishlashda; (3) qiyosiy tahlil — turli davlatlar bojxona tizimlarini solishtirish uchun; (4) monografik usul — muayyan tadbirkorlik sub'ektlari misolida muammolarni chuqur o'rganishda. Tadqiqotning axborot bazasini quyidagi manbalar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Davlat Bojxona Qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari, Prezidentlik yig'ilishlari materiallari, xalqaro tashkilotlar — Jahon Bojxona Tashkiloti (JBT) va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) — tavsivanomalari, shuningdek, yangiliklar portallari va vakolatxona hisobotlaridan olingan empirik dalillar. Tadqiqot davri 2024–2026-yillarni qamrab oladi.

Risk-menejment nazariyasi doirasida SUR tizimining funksional modeli ISO 31000:2018 xalqaro standarti (2018) hamda Kioto Konvensiyasining F.3 ilovasida (2008) belgilangan tamoyillar asosida tahlil qilingan. Tahlil natijalari bo'yicha uch zonali tasniflash modeli (yashil/sariq/qizil yo'lak) empirik ko'rsatkichlar bilan solishtirilib tekshirilgan.

Tahlil va natijalar muhokaasi.

SUR tizimining funksional tuzilishi va bosqichlari

Xavflarni boshqarish tizimi zamonaviy boshqaruv nazariyasining ajralmas qismi bo'lib, ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan. Bojxona amaliyotida mazkur tizim tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar va iqtisodiy xavflarni aniqlashga xizmat qiladi (Haydarov, Sobirov, 2024). SUR tizimi risk-menejment tamoyillariga asoslanib, quyidagi to'rtta asosiy funksiyani ketma-ket bajaradi: (1) xavflarni identifikatsiya qilish — potensial tahdidlarni aniqlash; (2) ularni baholash — ehtimollik va ta'sir darajasini o'lchash; (3) ustuvorlik darajasiga ko'ra tasniflash — resurslarni maqsadli taqsimlash; (4) nazorat choralarini qo'llash — selektiv tekshiruv mexanizmini ishga tushirish.

Eksport nazoratidagi muammolarning empirik tahlili

2025-yil davomida ayrim tadbirkorlar tomonidan soliq to'lovlaridan qochish maqsadida eksport narxlarini sun'iy pasaytirish natijasida \$192 mln.lik mahsulot hujjatlarda aks etmagan. Bundan tashqari, ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oziq-ovqat xavfsizligi talablariga javob bermaganligi tufayli importchi davlatlardan 700 dan ortiq e'tiroznoma kelib tushgan. Ushbu muammoni aniq ifodalovchi misol sifatida 2026-yilning 27-yanvarida Latviya davlatiga O'zbekistondan olib kelingan 3 tonna miqdoridagi ukrop yo'q qilinganligini keltirish mumkin. Latviya oziq-ovqat va veterinariya xizmati (FVD) ko'katlarda Yevropa Ittifoqida taqiqlangan "pestitsid propikonazol" moddasining qoldiqlari topilganini ma'lum qildi. Propikonazol Yevropa Regulyatorlariga ko'ra jigarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, gormonal muvozanatni buzishi va reproduktiv xavflarni oshirishi mumkin bo'lgan fungitsidlar guruhiga kiradi.

Xavflarni boshqarish tizimi (SUR)ning bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
1	Xavfni aniqlash — tashqi savdo operatsiyalarida potensial xavf omillarini identifikatsiya qilish
2	Xatarlarni tahlil qilish — xavfning ehtimolligini va iqtisodiy oqibatlarini baholash
3	Risklarni boshqarish — nazorat choralarini belgilash va selektiv tekshiruvni amalga oshirish
4	Monitoring va qayta ko'rib chiqish — tizim samaradorligini doimiy kuzatish va yangilash
5	Axborot almashinuvi va konsultatsiya — barcha manfaatdor tomonlar bilan muloqotni ta'minlash

Manba: O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2026-yil 20-aprel holatiga ko'ra Yevropaga 17 711 tonna turli ko'katlar yetkazilgan bo'lib, mahsulot qiymati 19 mln 542 ming dollarni tashkil etgan — bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar ko'pdir. Biroq 2026-yil yanvar oyining o'zida \$37,5 mln.lik mahsulot eksport ko'rsatkichlarida qayd etilmagan hamda birgina Rossiyadan 45 ta e'tiroznoma kelib tushgan.

Uch zonali tasniflash modeli: "Yashil-Sariq-Qizil" yo'laklar

Yuqoridagi holatlarning oldini olish, narxlarni sun'iy pasaytirish oqibatida yuzaga kelayotgan yashirin iqtisodiyotga barham berish hamda eksportda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida tahlilga asoslangan "Xavflarni boshqarish tizimi" (SUR) joriy etilgan (2025). Ushbu tizimga ko'ra eksportchi korxonalar quyidagi uch toifaga ajratiladi:

□ Yashil yo'lak (past xavf)

Mazkur toifaga kiruvchi korxonalar uchun karantin nazorati va eksportga jo'natish jarayonlari soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Quyidagi shartlar bajarilgan korxonalar yashil yo'lakdan foydalanish huquqiga ega:

- mahsulotlarni fitosanitar toza hududlardan yuklash;
- zararli organizmlardan xoli mahsulotlar eksport qilish;
- mahsulotlarni zamonaviy qadoqlarda eksport qilish;
- eksport jarayonida mahsulotlar narxini sun'iy pasaytirmaslik;
- importchi davlat tomonidan e'tiroznomalar va qaytarish holatlari qayd etilmasligi.

□ Sariq yo'lak (o'rta xavf)

Mazkur tizimga yuqorida qayd etilgan talablarni surunkali ravishda buzib kelayotgan tadbirkorlik sub'ektlari kiritiladi. Bu toifadagi korxonalar uchun nazorat tanlab olish tamoyili asosida amalga oshirilib, uzum, pomidor, anor, limon, gulkaram, ko'katlar kabi mahsulotlar uchun laboratoriya tahlili majburiy etib belgilanadi. Korxonalarga kamchiliklarni bartaraf etish uchun 5 kunlik muddat beriladi. Kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, korxonalar avtomatik ravishda yashil yo'lakka o'tkaziladi.

● Qizil yo'lak (yuqori xavf)

Mazkur yo'lakka eksport talablariga amal qilmasdan, qoidalarni muntazam ravishda buzib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan korxonalar kiritiladi. Bu yo'lakdagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun xizmatlar ko'rsatish qonunbuzilish holatlari bartaraf etilguniga qadar vaqtincha to'xtatiladi. Eksport yuklari to'liq laboratoriya tekshiruvidan o'tkazilib, doimiy nazorat o'rnatiladi (O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi, 2025).

Yevropa bozorida meva-sabzavot importchilari

O'zbekiston mahsulotlarining asosiy Yevropa xaridor kompaniyalari va ularning aloqa ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Meva-sabzavot importi bilan shug'ullanuvchi korxonalar (Yevropa)

№	Davlat	Korxonalar nomi	Aloqa	Mahsulot yo'nalishi
1	Niderlandiya	Staay Food Group B.V.	marketing@staay.nl www.staayfoodgroup.com	Yangi meva-sabzavotlar (qovun, tarvuz, gilos, o'rik, olxo'ri)
2	Niderlandiya	Jan Oskam Trading Company B.V.	info@janoskam.nl www.janoskam.nl	Olma, nok, sitrus mevalar, danakli mevalar, issiqxona sabzavotlari
3	Germaniya	ZIELER & CO.	info@zieler.de www.en.zieler.de	Quritilgan mevalar, yong'oqlar, dukkaklilar, urug'lar
4	Germaniya	OMNITRADE Handels-gesellschaft mbH	info@omnitrade-hamburg.com	Yong'oqlar, quritilgan mevalar, qayta ishlangan mahsulotlar
5	Chernogoriya	PERT d.o.o.	info@pertivat.com	Meva-sabzavot, yong'oq, dukkaklilar
6	Chexiya	MB INDUSTRY s.r.o.	info@mbin.eu nuttynutz.cz	Quritilgan mevalar, yong'oqlar, urug'lar
7	Chexiya	Oilseed s.r.o.	info@oilseed.cz	Xandon pista, bodom, keshu, quritilgan o'rik

Manba: O'zbekistonning Riga shahridagi savdo uyi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2026-yil 13-fevral kuni Toshkent viloyati Ohangaron tumanida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. 2026-yil yakuni bilan YAIM hajmini 167 milliard dollarga yetkazish va iqtisodiy o'sishni 6,6 foiz darajasida ta'minlash rejalashtirilgan. Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, o'tgan 2025-yilda mamlakatimiz YAIM 7,7 foizga o'sib, 147 mlrd AQSh dollaridan oshdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy tahlili shuni ko'rsatadiki, SUR tizimini joriy etishda quyidagi muammo va cheklovlar mavjud: (1) risk indikatorlarining yetarli darajada mukammal emasligi; (2) axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning past darajasi; (3) texnik va infratuzilma muammolari; (4) inson omilining saqlanib qolishi (Haydarov, Sobirov, 2024). Mazkur muammolar tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar — xususan Niderlandiya, Germaniya va Belgiya — bojxona tizimlarida xavflarni boshqarish tamoyillari to'liq joriy etilgan bo'lib, bu ushbu mamlakatlarning tashqi savdo operatsiyalari samaradorligini sezilarli darajada oshirgan [9]. O'zbekistonning eksport geografiasini kengaytirish maqsadida 2026-yilda Tunis, Marokash, Senegal, Iroq, Avstraliya, Portugaliya, Gretsiya va Nordik davlatlarida "Made in Uzbekistan" ko'rgazmalari o'tkazilishi rejalashtirilgan, jumladan "SIAL CHINA 2026" (18–20 may, Shanxay) va "THAIFEX – Anuga Asia 2026" (26–30 may, Bangkok) ko'rgazmalari.

SUR tizimining joriy etilishi eksport operatsiyalariga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi: eksport yuklarini rasmiylashtirish muddatining qisqarishi; logistika xarajatlarining kamayishi; ishonchli eksportyorlar uchun qulay sharoitning yaratilishi; tashqi savdo jarayonlarining shaffofligi oshishi (2025). Natijada, mamlakatning eksport salohiyati va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ortishiga keng yo'l ochiladi.

Yevropa Ittifoqiga eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan ko'katlar uchun, mahsulotlar Global G.A.P. sertifikatiga ega bo'lishi, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha laboratoriya tahlillaridan o'tishi, fitosanitar hujjatlarda barcha ma'lumotlar to'liq aks ettirilishi (traceability) va mahsulot yetishtirilishi bo'yicha kuzatuvchanlik ta'minlanishi zarur [3]. Ushbu talablarni bajarmaslik Latviya holatida ko'rilganidek mahsulotning yo'q qilinishiga va milliy eksport imijiga zarar yetkazilishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xavflarni boshqarish tizimi (SUR) (2025) eksport jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim instrument hisoblanadi. Uni takomillashtirish orqali bojxona nazoratini optimallashtirish, tashqi savdo operatsiyalarini jadallashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mumkin. SUR tizimini joriy etishdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

- risk baholash tizimiga sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish — bu risk profillarini real vaqt rejimida yangilab turish imkonini beradi;
- davlat organlari o'rtasida yagona axborot bazasini yaratish — bojxona, soliq, sanitariya va standartlashtirish tizimlarini integratsiyalash;
- ishonchli eksportyorlar uchun preferensiyalarni kengaytirish — AEO (Authorized Economic Operator) maqomini keng joriy etish;
- bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish — hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish va blockchain texnologiyasidan foydalanish;
- eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun majburiy fitosanitar sertifikatlash tizimini mustahkamlash va laboratoriya infratuzilmasini modernizatsiyalash.

Mazkur takliflarni izchil amalga oshirish O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan eksport strategiyasi maqsadlarini — 67 mlrd dollarlik eksport hajmiga erishish — samarali bajarilishiga muhim hissa qo'shadi. Shu bilan birga, SUR tizimini rivojlangan davlatlar tajribasi asosida takomillashtirib borish milliy eksportchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi va yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartiradi.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. — Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022. — [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/5841063> (murojaat sanasi: 20.04.2026).

Haydarov J.X., Sobirov A.R. (2024) Bojxona nazoratida risk-menejment: nazariya va amaliyot. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №3. — B. 112–125.

International Organization for Standardization. ISO (2018) 31000:2018 — Risk management — Guidelines. — Geneva: ISO, 2018. URL: <https://www.iso.org/standard/65694.html> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. (2018) International Economics: Theory and Policy. - 11th ed. — Pearson, - 784 p.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi. (2025) Xavflarni boshqarish tizimi (SUR): metodologik qo'llanma. — Toshkent: DBQ, - 48 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2026) 2026-yil 13-fevraldagi Ohangaron yig'ilishi materiallari: Tarmoq va hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari. — Toshkent.

O'zbekistonning Latviya Riga shahridagi savdo uyi. (2026) Yevropa bozori uchun potensial hamkorlar ro'yxati. — Riga.

Porter M.E. (1990) The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, — 855 p.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-126-son Qarori. — Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024. URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 20.04.2026).

Rahmonov A., Toshmatov B. va boshq. (2023) *Metodologiya ilmiy tadqiqot: iqtisodiyot fanlari bo'yicha qo'llanma* / Rahmonov A., Toshmatov B. va boshq. — Toshkent: TDIU nashriyoti, - 220 b.

Revised Kyoto Convention — Specific Annex F, Chapter 3: (2008) Outright Exportation. — Brussels: WCO, URL: <https://www.wcoomd.org> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

Vaib.uz. (2026) *Latviyaga olib kelingan O'zbekiston ukropi yo'q qilindi: sababi nima?* — 2026-yil 27-yanvar. URL: <https://vaib.uz> (murojaat sanasi: 20.04.2026).

World Customs Organization (WCO). SAFE (2023) Framework of Standards. — Brussels: WCO, - 92 p. URL: <https://www.wcoomd.org> (murojaat sanasi: 15.04.2026).